

NAVOIY - TARIXNAVIS: " TARIXI MULUKI AJAM" ASARINING FALSAFIY VA TARIXIY AHAMIYATI

Orifjonova Adolatxon Isomiddin qizi

**FarDU filologiya fakultetining o'zbek tili yo'nalishi
2-bosqich talabasi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20052138>

Annotasiya: Mazkur maqolada Hazrat Alisher Navoiyning tarixiy asarlaridan biri " Tarixi muluki ajam " asarining falsafiy va tarixiy ahamiyati va asarning o'рни tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, risola, tarix, Ajam, zolim shoh, adolatli shoh, shahzoda, davlat.

KIRISH

Bashariyat ma'naviyati xazinasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk mutafakkir va so'z mulkining sultoni Alisher Navoiy ijodi faqatgina yuksak she'riyat va lirik kechinmalardan iborat emas. Hazrat Navoiy o'zining serqirra faoliyati davomida nafaqat adabiyotshunos, tilshunos va davlat arbobi, balki teran nigohli tarixnavis olim sifatida ham namoyon bo'lgan. Uning tarixiy mavzudagi asarlari orasida "Tarixi muluki ajam" (Ajam podshohlari tarixi) alohida mavqega ega bo'lib, u turkiy tildagi tarixshunoslik an'alarini yangi bosqichga olib chiqqan nodir manbalardan biridir.

Tarix — o'tmish sadosi bo'lish bilan birga, kelajak uchun xulosa chiqaradigan ibrat ko'zgidir. Alisher Navoiy ushbu asarini yaratishda aynan mana shu tamoyilga — o'tmishdan saboq olish va adolatli jamiyat qurish g'oyasiga tayandi. O'sha davrda tarixiy manbalarning aksariyati arab va fors tillarida yozilganini hisobga olsak, Navoiyning jahon tarixini o'z ona tilida — turkiyda bayon etishi milliy ma'rifat yo'lidagi ulkan jasorat edi.

"Tarixi muluki ajam" shunchaki afsonaviy yoki tarixiy shaxslar haqidagi ma'lumotlar to'plami emas. Bu asarda Navoiy olis moziyning unutilgan sahifalarini varaqlab, Eron va Turon zaminida hukmronlik qilgan to'rt buyuk sulola timsolida davlat boshqaruvi, siyosat va insoniy fazilatlarini tahlil qiladi. Muallif har bir hukmdorning taxtga kelishi va inqirozini adolat va zulm taroziyasi orqali ko'rsatib beradi.

Arab bo'lmagan shohlar tarixi

Alisher Navoiyning mazkur asari o'z davri nuqtai nazaridan ilmiy dalillarga asoslangan risola hisoblanadi. Asarda Eron va Turon mulkida hukmronlik qilgan to'rt sulola : peshdodiyalar, kayoniylar, ashkoniylar va sosoniylar tarixi batafsil bayon qilinadi.

An'anaviy tarzda tarix Odam Ato (a.s.) davriga bog'liq talqin qilinadi. Alisher Navoiy mazkur asarda bir qator tarixiy va adabiy manbalarga tayanadi. U Abdulxayr Nasiriddin Abdulloh bin Umarning "Nizom ut-tavorix", Banokatiyning "Jome' ut-tavorix", Abu Hamid Muhammad G'azzoliyning "Nasihah ul-muluk", Abu Ali Miskavayhning "Odob ul-arab va al-furus", Hamdulloh Mustavfiy Qazviniyning "Tarixi guzida" kabi asarlardan keng foydalanadi. Shuningdek, Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" sigi va Iskandar haqidagi rivoyatlarda Xusrav Dehlaviy hamda Nizomiy Ganjaviy qarashlariga murojaat qiladi. Navoiy tarixchi sifatida har bir ma'lumotning aniqligi va asoslanganligiga e'tibor beradi.

Har bir podshoh qissasidan so'ng mazmunga mos she'rlar keltiriladi, shuningdek, sulolalar yakunida umumlashtiruvchi masnaviylar ham beriladi. Alisher Navoiy peshdodiyalar sulolasiga mansub 11 , kayoniylar sulolasidan 9 , ashkoniylar sulolasidan 15 , sosoniylar sulolasidan 28 ta , jami 4 ta suloladan 63 hukmdorning nomlari, ularning tarjimai holi, hayoti

va yuritgan siyosatiga doir ma'lumotlarni keltiradi. Alisher Navoiy asarda tarixga oid ko'plab muhim ma'lumotlarni bayon etadi. Jumladan, Balx, Bobil, Nishopur, Marv, Samarqand kabi shaharlarning bunyod etilishi, Navro'z bayramining kelib chiqishi, ro'zaning paydo bo'lishi hamda butparastlik bilan bog'liq voqealar haqida so'z yuritadi.

Navoiy adolatli hukmdorlarni ulug'laydi. Masalan, peshdodiylar sulolasidan Hushang dono, odil va ilmi podshoh sifatida tasvirlanadi. U mamlakatni ilm va qonun asosida boshqargan, “Jovidoni xirad” asarini yaratgan, temirni toshdan ajratish, uy-joy qurish, ariq qazish va shaharlar barpo etish kabi ishlari bilan e'tirof etiladi.

Shuningdek, Jamshid haqidagi rivoyatda uning dastlab adolatli hukmdor bo'lgani, ko'plab bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgani, Navro'z bayramiga asos solgani aytiladi. Biroq keyinchalik kibrga berilib, halokatga uchragani ta'kidlanadi. Bu orqali muallif ibratli xulosa chiqaradi.

Navoiy No'shiravoni Odil haqida ham alohida to'xtaladi. U sosoniylar sulolasining mashhur hukmdori bo'lib, adolati bilan tanilgan. Bir hikoyatda ikki kishi o'rtasidagi bog' va undagi xazina masalasida No'shiravon ularni kelishtirib, xazinani yangi oila manfaatiga berishni buyuradi. Bu voqea orqali jamiyatda adolat va insofilik g'oyasi ilgari suriladi.

Umuman, asarda tarixiy voqealar bilan birga axloqiy-falsafiy xulosalar ham berilib, adolatli boshqaruv g'oyasi markaziy o'rin egallaydi.

Asarning yana bir ahamiyatli jihati shundaki 63 hukmdordan 3 ayol podshoh ismining tilga olinishi. Birinchisi kayoniylarning oltinchi hukmdori Humoy. Keyingi ikki ayol podshoh sosoniylarning 27- va 28- hukmdorlari Turondux va Ozarmduxtdir.

Xulosa

Navoiy, A. Hayitmetov aytganidek, qadimiy afsona va tarixiy bilimlarni ancha sistemaga soldi, ular orqali o'zining ilg'or fikrlarini kelajakka emas, o'tmishga qarab gavdalantirdi.

Alisher Navoiy “Tarixi muluki Ajam” asarida qadimiy afsona va tarixiy manbalarni tizimli ravishda qayta ishlab, ularni badiiy va g'oyaviy jihatdan yangicha talqin etadi. Asar “Tarixi anbiyo va hukamo” bilan uzviy bog'liq holda yagona tarixiy-badiiy konsepsiyani tashkil qiladi. Navoiy manbalardan ijodiy foydalanib, xalqparvarlik va adolatparvarlik g'oyalarini ilgari suradi hamda tarixiy rivoyatlarni zamonaviy ijtimoiy-axloqiy mazmun bilan boyitadi.

Asarning tarixiy ahamiyati shundaki, unda qadimgi ajam hukmdorlari, shaharlar va ijtimoiy hayotga doir ma'lumotlar muayyan tizimga solinib, tarixiy xotirani saqlash va avlodlarga yetkazish vazifasi bajariladi.

Falsafiy jihatdan esa asarda adolat, insonparvarlik, hokimiyat va mas'uliyat, kibr va uning oqibatlari kabi muhim g'oyalar ilgari suriladi. Muallif tarixiy obrazlar orqali komil inson va adolatli jamiyat haqidagi qarashlarini ifodalaydi. Nasriy va she'riy unsurlar uyg'unligi esa Navoiyning yuksak badiiy tafakkuri va estetik qarashlarini namoyon etib, asarning ilmiy-badiiy qimmatini yanada oshiradi.

“Tarixi muluki ajam” Navoiyning shohlar va sulolalar tarixi, umuman, insoniyat va turli dinlar tarixini, tarixiy asarlarni yaxshi bilgan keng qamrovli donishmand muarrif ekanligini ko'rsatadi. Asar shohlik, umuman umrning o'tkinchiligi haqidagi falsafiy mulohazalar va Husayn Boyqaro tarixini yozish haqidagi orzu bilan nihoyasiga etadi. “Tarixi muluki ajam” yozilish uslubining soddaligi, ravonligi bilan o'sha davrdagi ko'p tarixchilarning balandparvoz va jimjimador uslubidan sezilarli farq qiladi. Navoiyning bu asari tarixni, o'zbek adabiyoti tarixini o'rganishda hamon o'z ahamiyatini saqlab, alohida o'rin egallagan asar hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Алишер Навоий. МУКАММАЛ АСАРЛАР ТЎПЛАМИ. Йигирма томлик, ўн олтинчи том. МУҲОҚАМАТ УЛ-ЛУҒАТАЙН. МЕЗОН УЛ-АВЗОН. ТАРИХИ АНБИЁ ВА ҲУКАМО. ТАРИХИ МУЛУКИ АЖАМ. АРБАЪИН. СИРОЖ УЛ-МУСЛИМИН. МУНОЖОТ. РИСОЛАИ ТИЙР АНДОХТАН. — Тошкент: «Фан», 2000.
2. Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 30 жилдлик, 1-жилд. — Тошкент: "Тамаддун", 2022. — 348 б.
3. Alisher Navoiy ensiklopediyasi: 4-jild. --- Toshkent: O'zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024. --- 480 b.
4. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik/darslik.---Toshkent : " Tamaddun" , 2019. --- 520 b.